



MA'MURIY SUDLAR MUSTAQILLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Qurbonova Malika Sunatullo qizi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi ma'muriy sudlar mustaqilligining nazariy asoslari, xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasining huquqiy amaliyotidagi tatbiqi tahlil qilinadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy printsip sifatida qaraladi, ma'muriy sudyalarning institutsional, funksional va shaxsiy mustaqilligi masalalari yoritiladi. Shuningdek, ma'muriy sudlar faoliyatidagi muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sud, sud mustaqilligi, sud hokimiyati, ma'muriy nizo, sudyaning daxlsizligi, sud islohoti, hokimiyatlar bo'linishi.

Zamonaviy huquqiy davlatda sud hokimiyatining mustaqilligi adolat tizimining tamal toshi hisoblanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etadigan ma'muriy sudlar mustaqilligi alohida ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, ma'muriy sudlarda bir taraf sifatida davlat hokimiyati organlari ishtirok etadi va shu sababli sudyaga nisbatan bosim o'tkazish ehtimoli yuqori bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari doirasida ma'muriy sudlar tizimi tubdan qayta qurildi va alohida ma'muriy sudlar tashkil etildi [1].

Ma'muriy sudlar mustaqilligi muammosi nafaqat O'zbekiston, balki butun postsovet hududidagi davlatlar uchun dolzarbdir. Sovet davridan meros bo'lib qolgan ijro hokimiyatining sud ustidan ta'siri o'tish davrida ham saqlanib qolgan edi. Shu sababli, ma'muriy sudlarning mustaqilligini ta'minlash demokratik va



huquqiy davlat qurish jarayonining muhim shartidir [2]. Ushbu tezisdagi mazkur masalaning nazariy asoslari, xalqaro standartlari hamda O‘zbekiston amaliyotidagi tatbiqi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi ma’muriy sudlar mustaqilligini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Sud mustaqilligi - bu sudyalarning o‘z faoliyatini amalga oshirishda har qanday tashqi ta’sirdan, jumladan, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlari, manfaatdor shaxslar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikridan xoli bo‘lishini anglatadi. Klassik konstitutsiyaviy huquq nazariyasida sud mustaqilligi Sharl Lui Monteskyu tomonidan ishlab chiqilgan hokimiyatlar bo‘linishi printsipining ajralmas qismi sifatida qaraladi [3]. Monteskyuning fikricha, agar sud hokimiyati qonun chiqaruvchi yoki ijro hokimiyati bilan birlashtirilsa, fuqarolarning erkinligi tugaydi.

Zamonaviy huquqshunoslarda sud mustaqilligini ikki asosiy aspektda ko‘rib chiqadilar: institutsional mustaqillik va shaxsiy mustaqillik. Institutsional mustaqillik - bu sud tizimining boshqa davlat hokimiyati tarmoqlaridan tashkiliy va moliyaviy jihatdan ajralganligini bildiradi. Shaxsiy mustaqillik esa har bir sudyaning o‘z vakolatlarini amalga oshirishda erkinligini, daxlsizligini va ish haqi kafolatlarini o‘z ichiga oladi [4].

Ma’muriy sudlar mustaqilligi umumiy sud mustaqilligi tushunchasidan bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, ma’muriy sudlarda nizolashayotgan tomonlardan biri har doim davlat hokimiyati organi yoki uning



mansabdor shaxsi bo‘ladi. Bu hol sudyaga ma’lum bir bosim o‘tkazish ehtimolini oshiradi, chunki davlat organi nafaqat protsessual tomon, balki sud tizimini tashkil etish, moliyalashtirish va sudyalarni tayinlash bilan bog‘liq jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi [5].

Ikkinchidan, ma’muriy sudlarning mustaqilligi nafaqat shaxsiy va institutsional, balki funksional jihatdan ham ta’minlanishi kerak. Funksional mustaqillik sudyaning ma’muriy ish hal etishda davlat organining qarorini erkin baholash, uni qonuniyat va asoslilik nuqtai nazaridan tekshirish vakolatini anglatadi. Bu vakolat cheklangan bo‘lsa, ma’muriy sud o‘zining asosiy vazifasi - fuqarolarning huquqlarini davlat o‘zboshimchalikidan himoya qilishni amalga oshira olmaydi [6].

Uchinchidan, ma’muriy sudlarda sud diskretsiyasi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sudya davlat organining diskretsiyon vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorni ko‘rib chiqishda muvozanat saqlay olishi, ya’ni bir tomondan boshqaruv organining mustaqilligini hurmat qilishi, ikkinchi tomondan esa fuqarolarning huquqlarini ta’sirchan himoya qilishi kerak [7]. Bu muvozanatni saqlash sudyaning yuqori malakasi va mustaqilligini talab qiladi.

Sud mustaqilligi xalqaro huquqning eng muhim printsiplaridan biri sifatida bir qator universal hujjatlarda mustahkamlangan. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida har bir inson o‘zining huquq va majburiyatlari aniqlanishida hamda o‘ziga qarshi qo‘yilgan jinoiy ayblovning asoslilikini hal etishda mustaqil va xolis sud tomonidan ishi ko‘rib chiqilishiga to‘la tenglik asosida haqliligi belgilangan [8].



1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasida ham xuddi shunday norma mustahkamlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1985-yilda qabul qilingan Sudyalarning mustaqilligining asosiy printsiplari mazkur sohadagi muhim universal hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjatda sud mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanishi va konstitutsiya yoki qonunlarda mustahkamlanishi kerakligi belgilangan [9].

Yevropa Kengashi doirasida qabul qilingan Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va mas‘uliyati to‘g‘risidagi 2010-yilgi Tavsiyada (CM/Rec(2010)12) sudyalarning ichki va tashqi mustaqilligi alohida ta‘kidlangan. Bundan tashqari, Yevropa Sudyalari Konsultativ Kengashining (CCJE) Magna Carta hujjati ham sud mustaqilligi standartlarini belgilab beradi [10]. Bu hujjatlar ma‘muriy sudlar uchun ham to‘la qo‘llaniladi.

Yevropa Inson Huquqlari Sudi o‘zining ko‘plab qarorlarida sud mustaqilligini baholashning to‘rt asosiy mezonini ishlab chiqdi: sudyani tayinlash tartibi, mansab muddati, tashqi ta‘sirlardan himoyalanganlik kafolatlari mavjudligi va sudning mustaqillik ko‘rinishi. Mashhur Campbell and Fell vs. Birlashgan Qirollik ishida ushbu mezonlar batafsil yoritilgan [11]. Mazkur mezonlar ma‘muriy sudlar faoliyatini baholashda ham qo‘llaniladi va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Veneziya Komissiyasi (Yevropa Kengashining huquq bo‘yicha komissiyasi) sud mustaqilligi masalalari bo‘yicha ko‘plab xulosalar va tavsiyalar qabul qilgan. Komissiya sudyalarni tanlash va tayinlashda mustaqil organ - Sudyalarning oliy kengashining roli muhim ekanligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, sudyalarning



intizomiy javobgarligi shaffof tartibda va mustaqil organ tomonidan amalga oshirilishi kerakligi belgilangan [12].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi. Konstitutsiyaning 137-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi va faqat qonunga bo‘ysunishi belgilangan. 138-moddada esa sudyalarning faoliyatiga aralashish ta‘qiqlanishi va bunday harakatlar uchun qonunda belgilangan tartibda javobgarlik nazarda tutilishi mustahkamlangan [13].

2021-yil 28-yanvarda "Sudlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonunning alohida moddalari aynan sudyalarning mustaqilligini ta‘minlash mexanizmlariga bag‘ishlangan. Qonunda sudyaning daxlsizligi, intizomiy javobgarlik tartibi, ish haqi va ijtimoiy kafolatlari batafsil belgilangan [14]. Bu sudyalarning shaxsiy mustaqilligini ta‘minlovchi muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Ma‘muriy sudlar tizimi 2017-yildagi sud-huquq islohotlari doirasida tubdan o‘zgartirildi. Avval iqtisodiy va fuqarolik ishlari bilan bir qatorda umumiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan ma‘muriy ishlar uchun alohida ma‘muriy sudlar tashkil etildi. 2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks ushbu sohada sezilarli yangilanish bo‘ldi va davlat organlarining qarorlari, harakatlari hamda harakatsizliklari ustidan shikoyat qilish tartibini batafsil tartibga soldi [15].

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi 2017-yilda tashkil etilgan bo‘lib, sud hokimiyati mustaqilligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kengash sudyalarni tanlash, tayinlash va lavozimidan ozod etish bo‘yicha takliflar



tayyorlaydi, sudyalarning intizomiy javobgarligi masalalarini ko‘rib chiqadi. "O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida"gi qonunga muvofiq, Kengash o‘z faoliyatida mustaqildir va boshqa davlat organlariga bo‘ysunmaydi [16].

Sudyalar oliy kengashining tashkil etilishi sud hokimiyatining ijro hokimiyatidan institutsional ajralishi yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Avval Adliya vazirligi tarkibida bo‘lgan sudyalarni tanlash funksiyalari mustaqil organga o‘tkazildi. Bu xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan jiddiy o‘zgarish hisoblanadi. Biroq, ba‘zi tadqiqotchilarning fikricha, Kengash a‘zolarini tanlash tartibida hali ham mukammallashtirishni talab etadigan jihatlar mavjud [17].

O‘zbekistonda ma‘muriy sudlar tizimi tashkil etilganidan beri o‘tgan davrda bir qator ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, fuqarolarning davlat organlari ustidan murojaatlari soni va ularning qondirilishi darajasi sezilarli ravishda oshdi. Misol uchun, 2022-yilda ma‘muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan ishlarning qariyb 60 foizida fuqarolar foydasiga qaror qabul qilindi [18]. Bu ko‘rsatkich ma‘muriy sudlarning haqiqatan ham fuqarolar manfaatlarini himoya qila boshlaganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ba‘zi hollarda mahalliy hokimiyat organlari sud qarorlarini bajarishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu sud hokimiyatining ijroiyligini va shu orqali uning samarali mustaqilligini cheklaydi. Sud qarorlarining majburiy bajarilishi mexanizmini takomillashtirish bu boradagi muhim vazifa hisoblanadi [19].



Ikkinchidan, sudyalarning malakasini oshirish, ayniqsa, ma'muriy huquq sohasidagi mutaxassisligini chuqurlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ma'muriy huquq murakkab va doimiy ravishda rivojlanib boruvchi soha bo'lib, sudyalardan jamiyat va davlat boshqaruvi sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishni talab etadi. Sudyalar oliy maktabi faoliyatini kengaytirish va xalqaro tajribadan keng foydalanish zarur.

Uchinchidan, ma'muriy sudlar mustaqilligining "ko'rinish" tomoniga ham e'tibor qaratish lozim. Bu shunday holatlarni anglatadiki, sud nafaqat aslida mustaqil bo'lishi, balki jamoatchilik nazarida ham mustaqil sifatida qabul qilinishi kerak. Hozirda fuqarolar va biznes hamjamiyati orasida ma'muriy sudlarga ishonch darajasini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda, ammo bu sohada hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar mavjud [20].

Ma'muriy sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rilishi mumkin. Eng avvalo, sudyalarni tanlash va tayinlash tartibini yanada shaffof va tanlovga asoslangan tarzda olib borish kerak. Tanlov mezonlari aniq belgilangan, kasbiy malaka, ma'naviy fazilatlar va sud faoliyatiga moyillik kabi xususiyatlarga e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, tanlov jarayonlarining ochiqqligini ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, sud byudjetining mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Sud tizimi byudjetining shakllantirilishi va ijrosida sud hokimiyatining roli kengaytirilishi kerak. Xalqaro tajribada ko'pincha sudlar o'z byudjetlarini mustaqil ravishda tuzadi va parlamentga taqdim etadi, ijro hokimiyati bu jarayonda faqat



maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi. O‘zbekistonda ham bunday yondashuvni tatbiq etish foydalidir [17].

Uchinchidan, sudyalarning intizomiy javobgarligi tartibini yanada takomillashtirish lozim. Hozirgi qonunchilikda intizomiy huquqbuzarliklarning aniq ta’rifi va ularga muvofiq jazo turlari aniqroq belgilanishi kerak. Bu sudyalarning o‘z faoliyatida noaniqlik va xavotirsiz mehnat qilishlariga zamin yaratadi. Shu bilan birga, intizomiy ishlar shaffof va xolis tarzda ko‘rib chiqilishi muhim.

To‘rtinchidan, jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ma’muriy sudlar faoliyati to‘g‘risida axborotning ochiqligi, sud qarorlarining elektron resurslarda nashr etilishi, fuqarolarning sud jarayonlariga kirishi imkoniyatini kengaytirish - bularning barchasi sudga ishonchni mustahkamlaydi va mustaqillikning "ko‘rinish" jihatini ta’minlaydi [20].

Ma’muriy sudlar mustaqilligi huquqiy davlatning tamal toshlaridan biri bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini davlat o‘zboshimchalikidan himoya qilishning samarali vositasidir. Nazariy jihatdan sud mustaqilligi institutsional, funksional va shaxsiy aspektlarni qamrab oladi va ularning har biri o‘z ahamiyatiga ega. Xalqaro huquq esa sud mustaqilligi standartlarini batafsil tartibga solgan bo‘lib, milliy qonunchilik va amaliyot uchun yo‘l-yo‘riq beradi.

O‘zbekistonda ma’muriy sudlar mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha so‘nggi yillarda jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi: alohida ma’muriy sudlar tashkil etildi, Sudyalar oliy kengashi tuzildi, qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Bu o‘zgarishlar mamlakatda sud hokimiyati mustaqilligi yo‘lidagi muhim qadamlardir. Biroq, amaliyotda hali bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular



sudyalarning malakasini oshirish, sud qarorlarining samarali bajarilishini ta'minlash, sudga ishonchni mustahkamlash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi.

Kelgusida ma'muriy sudlar mustaqilligini mustahkamlash uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Bunda nafaqat huquqiy normalarni takomillashtirish, balki sud madaniyatini rivojlantirish, jamoatchilik ongida sudga hurmatni shakllantirish va xalqaro tajribadan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shu yo'l bilan ma'muriy sudlar haqiqiy ma'noda mustaqil va fuqarolar manfaatlariga xizmat qiluvchi adolat institutiga aylana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. – T.: "Adolat", 2017.
2. Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari: tarix va istiqbollar // Davlat va huquq. – Toshkent, 2019. – №3. – B. 12-25.
3. Монтескье Ш.Л. О духе законов / Пер. с фр. – М.: МЫСЛЬ, 1999. – 672 с.
4. Shaikhutdinov B.X. Sud hokimiyati va uning mustaqilligi: nazariy-huquqiy tahlil. – Toshkent: TDYU, 2020. – 245 b.
5. Bachilo I.L. Ma'muriy huquq: darslik / Mas'ul muharrir: Tursunov A.S. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 412 b.
6. Tursunov A.S. Ma'muriy sud ishlarini yuritish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDYU, 2021. – 320 b.



7. Schwarze J. European Administrative Law. – London: Sweet & Maxwell, 2006. – 1547 p.

8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami. – T.: "Adolat", 2002.

9. Sudyalar mustaqilligining asosiy printsiplari. BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 13-dekabrda 40/146-sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan. URL:

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/indep.shtml

10. Recommendation CM/Rec(2010)12 of the Committee of Ministers to member states on judges: independence, efficiency and responsibilities. Council of Europe, 2010.

11. Case of Campbell and Fell v. The United Kingdom. European Court of Human Rights, Judgment of 28 June 1984. Application No. 7819/77; 7878/77.

12. Venice Commission. Report on the Independence of the Judicial System. Part I: The Independence of Judges. CDL-AD(2010)004. Strasbourg, 2010.

13. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023. – 80 b.

14. "Sudlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni. 2021-yil 28-yanvar, O‘RQ-674-son. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021, № 4-son.

15. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 2018-yil 25-yanvar, O‘RQ-462-son. – T.: "Adolat", 2018.



16. "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2017-yil 6-aprel, O'RQ-427-son.
17. Rustambekov I.R. O'zbekistonda sud hokimiyati islohoti: erishilgan natijalar va istiqbolli vazifalar // Yuridik fanlar axborotnomasi. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 45-58.
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil yakunlari bo'yicha hisoboti. URL: <https://supcourt.uz>
19. Xudaybergenov A.M. Sud qarorlarining bajarilishi muammolari // Huquq va burch. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 28-34.
20. Karimov F.A. Sud hokimiyati va jamoatchilik: o'zaro hamkorlik mexanizmlari // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2023. – №2. – B. 67-78.